NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 27-dekabr | 164-5-76-Q/24 | Uchquduq tumani hokimligi

Tumandagi transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvar kuni “Yo‘l xarakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi 900-sonli Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024 yil 8-iyul kunidagi 390-sonli qarori hamda 2021-yil 9-mart kunidagi 125-sonli qaroriga muvofiq transport vositalarining 2025-yilgi majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining Axborotnomasi 1993-yil 9-sonli 320-moddaga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Uchquduq tumani hududida joylashgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari, majburiy mavsumiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Majburiy mavsumiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha Uchquduq tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Navoiy viloyati IIB JXX Yo‘l Harakati Xavfsizligi boshqarmasi 1-sonli tumanlararo ro‘yxatga olish va imtixon olish bo‘limida Uchquduq tumani bo‘yicha ro‘yxatda turgan transport vositalariga ega avtokorxona, tashkilot, xususiy korxonalar hamda muasasalarning, 2025-yildagi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda, o‘z vaqtida rejali jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanadigan yengil turdagi avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (xaydovchining

o‘rindig‘idan tashqari) odamlarni muntazam tashishi uchun jihozlangan, yuk avtomobillari yirik gabaritli va og‘ir vaznli hamda xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari shuningdek ularga tirkamalar bir yilda ikki marta;

b) jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalarining ishlab chiqarilganligiga o‘n besh yildan ko‘p bo‘lmagan, (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan trasport vositalaridan tashqari) o‘n yildan keyin ikki yilda bir marota;

v) jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalarining ishlab chiqargan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga o‘n besh yildan ko‘p bo‘lgan trasport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan trasport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan trasport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

g) tirkamalar va ko‘rikdagi trasport vositasi hamda shatakchi uchun belgilangan muddatlarda YHXB originallarida ro‘yxatdan o‘tqazilgan kundan boshlab, ulardan foydalanishning birinchi yili mobaynida transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilmaydi, mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilganlardan tashqari;

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tqazish tartibi takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarorida, O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi, Ichki Ishlar Vazirligining ichki va soqchilik qo‘shinlari, Milliy Xavfsizlik Xizmatining harbiy bo‘linmalarining transport vositalari, ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan taribda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Mazkur qarorning 4-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta joriy yilning 1-martidan, 30-iyunigacha o‘tkaziladi.

ikkinchi marta joriy yilning 1-sentyabrdan, 30-oktyabrigacha o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan boshqa transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tish tartibi 1-yanvardan, 31-dekabrgacha o‘tkaziladi.

7. Transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun jarimalar undirilishida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-mart kunidagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarorida belgilangan tartiblarga qat’iy rioya qilinsin.

8. Transaport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish, tuman komissiyasi rahbariga:

transport vositalarining texnik holati, ulardan foydalanish normalari hamda qoidalariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish:

transport vositalarining texnik holati va uskunalari shuningdek yo‘l harakati xavfsizligi standartlari hamda normalariga muvofiqligini baholash yuklatilsin.

9. Tuman hududidagi barcha yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini majburiy mavsumiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish haydovchilarni malakasini oshirganligi to‘g‘risidagi sertifikat va transport vositalarini videokuzatuv moslamalari (videoregistrator) bilan to‘liq jihozlanganidan so‘ng amalga oshirilsin.

10. Uchquduq tumani IIB JXX YHXG xodimlari mazkur qarorning ijrosi ta’minlanganligi to‘g‘risida 2025-yilning 31-dekabr kuniga qadar Uchquduq tuman hokimligiga yozma ravishda axborot taqdim etish vazifasi topshirilsin.

11. Tuman hokimligi va “UCHQUDUQ” gazetasi tahririyati hamda davlat korxonalari birgalikda ommaviy axborot vositalariga keng yoritilishini hamda Uchquduq tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Uchquduq tuman xoqimining o‘rinbosari S.Muratovga, ijrosini tashkil etish Uchquduq tuman IIB boshlig‘i A.Radjapov zimmasiga yuklatilsin.

Uchquduq tuman hokimi **У.Елмуратов**

Uchquduq tuman hokimining
2024-yil 27-dekabrdagi
164-5-76-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

t/r	F.I.O	Ish joyi va lavozimi
1	D.Yo‘ldoshov	Tuman IIB JXX YHXG katta inspektori ishchi guruh rahbari
2	B.Beknazarova	tuman “O‘zagrosug‘urta” bo‘limi bosh menedjeri, ishchi guruhi a’zosi
3	G.Buranova	tuman Mudofa ishlari bo‘limida texnika hisobini yurituvchi xodim
4	B.Raximov	Navoiy viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i
5	“NKMK” AJ ShKBdan	korxona va tashkilotlar bosh muxandislari ajratilgan mutaxasis ishchi guruhi a’zolari

Uchquduq tuman hokimining
2024-yil 27-dekabrdagi
164-5-76-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Uchquduq tumani IIB JXX YHXGda ro‘yxatda turgan transport vositalariga ega bo‘lgan avtokorxona tashkilot, xususiy korxonalarning 2025 -yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish

J A D V A L I

T/R	Tashkilot, korxona, idora va uyushmalarning nomlari	TV soni	Kuni va vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkiziladigan joyi
1	"NAVOIY KON -METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	293	14-28.03.2025-yil 11-25.04.2025-yil 13-27.06.2025-yil	Korxona hududida
2	OOO "UCHQUDUQ SAVDO "	12	10.04.2025-yil	Korxona hududida
3	"NAVOIYURAN" dk	92	15.05.2025-yil	Korxona hududida
4	ShIMOLIY KON BOShQARMASI (SRU)	12	17.04.2025-yil	Korxona hududida
5	"UCHQUDUQ TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH " dm	24	18.04.2025-yil	Korxona hududida
6	AJ O‘ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV	15	25.05.2025-yil	Korxona hududida
7	"ISKANDAR-ISHONCH-TRANS-SERVIS" MChJ	6	24.04.2025-yil	Korxona hududida
8	HOKIMIYAT	6	15.05.2025-yil 04.04.2025-yil 23.05.2025-yil	Korxona hududida
9	UChQUDUQ TUMAN OBODONLAShTIRISh	14		Korxona hududida
10	UChQUDUQ TUMAN TIBBIYOT BIRLAShMASI	9		Korxona hududida
11	MINGBULOQ ShIRKAT XO‘JALIGI	4	13-27.03.2025-yil	Korxona hududida
12	UZB MK VATANPARVAR USTK	6	07.04.2025-yil	Korxona hududida
13	AVTOBAZA №3 NKMK	4	08.04.2025-yil	Korxona hududida
14	UCHQUDUQ TUMAN KASB-HUNAR MAKTABI	4	09.04.2025-yil	Korxona hududida
15	"DUNYO LOGISTIK 777" MCHJ	4	14.05.2025-yil	Korxona hududida
16	"UCHQUDUQ RAVON YO‘L" MCHJ	8	25.06.2025-yil	Korxona

				hududida
17	OOO "UCHQUDUQ-QIMIZ"	8	08.04.2025-yil 14.05.2025-yil	Korxona hududida
18	"JUMA BOBO-2020" MCHJ	6	24.06.2025-yil	Korxona hududida
19	Uchquduq hududiy boshqarma	3	10.05.2025-yil	Korxona hududida
20	UChQUDUQ TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI	1	06.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
21	"UChQUDUQ TUMAN TOZA HUDUD" DUK	4	22.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
22	"UCHQUDUQ MURODULLO ORZUSI" MCHJ	3	16.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
23	"FARRUX UCHQUDUQ TRANS" MCHJ	7	15.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
24	UChQUDUK TEMIR YO'L MASOFASI	5	16.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
25	"UCHQUDUQ ULGURJI SAVDO" MCHJ	2	25.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
26	UCHQUDUQ TUMAN SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK MARKAZI	2	13.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
27	"ISHONCH FERUZ"	2	15.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
28	"GRANT UCHQUDUQ " MCHJ	2	17.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
29	"TEMURBEK FAYZ" f/x	2	5.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
30	"MARKAZIY QIZILQUM MILLIY TABIAT BOG`I"	2	15.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
31	"ONIKS" MCHJ	2	15.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
32	"UCHQUDUQ SANOAT TEXNIKUMI"	2	26.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
33	UChQUDUQ DAVLAT "O'RMON XO'JALIGI"	2	15.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
34	"AL-QASR UCHQUDUQ" MAS'ULIYATI	2	15.03.2025-yil	Tuman IIB

	CHEKLANGAN JAMIYAT			YHXG binosida
35	"NAVOIY VILOYAT UCHQUDUQ TUMANI	1	28.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
36	"UCHQUDUQ SUV-HAYOT TOMCHISI" MCHJ	1	28.03.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
37	"UCHQUDUQ QORA BAYIR" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	1	19.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
38	"UChKUDUK NEDRA" MChJ	1	19.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
39	"UChKUDUK" GAZETA TAXRIRIYaTI DAVLAT KORXONASI	1	21.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
40	"UChKUDUK ShAXAR DSI"	1	21.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
41	"FX "UCHQUDUQ FOTIMA ZUHROLAR""	1	26.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
42	"SHERNAZAR DENTA" fermer xo‘jaligi	1	26.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
43	"RIZO SHERBEK FAYZ" MChJ	1	17.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
44	""FARANGIZ ORZUSI"X/K"	1	19.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
45	S.F.T DEPARTAMENTI NAVOIY VILOYATI XUDUDIY BO‘LIMI	1	16.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
46	"JEWELERY STONE" MChJ	1	15.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
47	"FARRUX UCHQUDUQ TRANS" MChJ"	1	15.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
48	"UChKUDUK TUMAN KIShLOK XUJALIK BULIMI"	1	15.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
49	“SFT DEPARTAMENTI” UChKUDUK TUMAN MA’MURIY SUDI	1	15.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
50	"OOO "HEART OF UCHKUDUK""	1	13.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
51	UZB.YOShLAR ITTIFOQI UChQUDUQ	1	13.05.2025-yil	Tuman IIB

	KENGAShI			YHXG binosida
52	"RAVShAN GULShAN RAVNAQI" MChJ	1	13.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
53	UZUNQUDUQ ShIRKAT XUJALIGI	1	19.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
54	"ZARAFSHON-NEDRA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	1	19.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
55	"ISKANDAR-ISHONCH-TRANS-SERVIS" MChJ	1	18.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
56	"ALTINTAU" XSH	1	18.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
57	"ENERGIYASISTEMA TEXNOLOGIYA" MCHJ	1	23.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
58	"MAVLUDA MARJONA" x/k	1	23.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
59	"MEXRIDDIN GOLD 888" MCHJ	1	23.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
60	"NASIBA SHIRINLIKLARI" x/k	1	27.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
61	" UCHQUDUQ TUMAN MADANIYAT VA TURIZM BO'LIMI" DM	1	27.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
62	"NAVOIYQUARTZ" MCHJ	1	27.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
63	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI O` R	1	27.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
64	"SHER-RAM BIZNES 777" MCHJ	1	29.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
65	"SHOIRA YODGOR" MCHJ	1	29.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
66	"SIFATLI KAOLIN" MCHJ	1	05.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
67	"UCHQUDUQ DEHQON BOZORI" MCHJ	1	05.04.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
68	"UCHQUDUQ GOLD 888" MCHJ	1	05.04.2025-yil	Tuman IIB

				YHXG binosida
69	"UCHQUDUQ TUMAN VETERENARIYA VA CHORVACHILIKNI RIV-SH BO'LIMI" d/m	1	04.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
70	"UZ DOMSTROY" MCHJ	1	04.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
71	"XUMO BARAKA TEX" MCHJ	1	04.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
72	"AYGERIM ALMAGUL" XUSUSIY KORXONASI	1	23.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
73	JUZQUDUQ ShIRKAT XO‘JALIGI	1	23.05.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
74	MKT "VATANPARVAR" UChQUDUQ TUMAN KENGAShI	1	09.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
75	NGMK SEV.RU UAT	1	09.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
76	"ENERGIYA SISTEMA TEXNOLOGIYA"	1	09.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
77	SEV.RU RMS	1	09.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
78	UR MB RIX DUK NAVOIY VIL BOShQARMASI UChQUDUQ ShAHAR BO‘LIMI	1	10.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
79	“NASIBA ShIRINLIKLARI” x/k	1	10.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
80	“NURAFShON NUR BIZNES” MChJ	1	10.06.2025-yil	Tuman IIB YHXG binosida
JAMI;		624		

Izoh: Qolgan tashkilotlar, xususiy kichik korxonalarga tegishli bo‘lgan transport vositalari haftaning yakshanba kunlari Uchquduq tumanidagi “Uchquduq-Qimiz” MChJda texnik ko‘rikdan o‘tkazadilar.